

XALIL SULTON SHAXSIYATIGA NAZAR

*O'razboyeva Maftuna Qodir qizi*

*O'zbekiston Finlandiya pedagogika insituti*

*Xorijiy til va gumanitar fanlar fakulteti*

*2-bosqich talabasi*

*Tel: +998 (94) 015 14 01*

**Annotatsiya:**

Bu maqola XIV asr oxiri va XV asr boshlarida yashagan Temuriyzoda Xalil Sulton xotirasiga bag'ishlanadi. U hayoti davomida yurti uchun qilgan ishlari boshqa davlatlar bilan olib borgan diplomatik aloqlari. Mohir sarkarda va ajoyib davlat boshqarish qobiliyati va Temuriylar davlati uchun munosib shahzoda ekanligini ko'rsatgani uchun va o'z davlatini doimo mustahkam yetuk mamlakatlar qatorida ko'rishni xohlagan va doimo shu narsaga intilib keladi.

Bazibir tarixchilar tomonidan Xalil sulton xotirasiga nohaq yondashgan holda shahzodani Temuriylar davlatini bo'linishiuga asosiy sabab deb qarashi va kiyinchalik bu davlatni kuchsizlanib qolishiga asosiy sabab deb uning o'zboshimchalik bilan taxtni egallab olishini ko'rsatishadi, aslida esa Amur Temur vafotidan kiyin uning taxtiga va albatta qudratli davlatiga ko'z tikkan shag'zodalar ko'p bo'ldi ammo ular orasida mamlakatni unga munosib ravishda boshqaradigani bo'lmagan bunga misol qilib har bir shag'zoda o'z manfaatini o'ylab harakat qilganini ammo hech birida davlatni boshqarish siyosati yo'qligini va shuning orqasidan oddiy aholi qiyin vaziyatga tushib qolayotganini shu zamon tarixchilari ham alohida takidlab o'tadi. Bundan tashqari tarixiy qo'lyozmalardan malumki Amur Temur hayotlik chog'ida valiyahdlik uchun asosiy davogarlardan biri bu Xalil Sulton bo'lganligi uning diplomatiyasiga va harbiy sarkardalik qobiliyati tufayli Zamon shohining doimo munosib o'rinda turgani malum. Xalil Mirzoni Bobosing deganiga bo'ysinmasligi uning o'zidan uzoqlashtirishiga sabab bo'lgan bo'lsada Temur uchun aynan shu shag'zoda alohida o'rin va etiborga loyiq nabiralaridan edi.

**Kalit so'zlar:** Zamon shohi, Valiyahd, Mirzo, Diplomatiya, Sarkarda, Bitim, Sulh, Xon, Farmon, Mavze, Noyib, Saroy, Zindon, Qo'zg'alon,

**Matn qismi:** Xalil Sulton 1384-yilda Movronahirda tug'ulgan tarixiy shaxs. Xalil Sulton Amir Temur nabirasi Mironshohning uchunchi o'g'li xisoblanadi. Onasining ismi Suyun beka hisoblanadi. Saroyda Xonzodabegim deb ulug'langan.

Yoshligi va tarbiyalanishi Movrunahirdagi Temur saroyida o'tadi. Saroyda Bibixonim qo'lida tarbiya topgan. Saroyda davlat boshqaruvidan tashqari harbiy sarkardalik ilmini ham yaxshi o'zlashtirgan. Xalil Sulton yoshlik chog'laridanoq

diplomatik salohiyati sarkardalik qobiliyati bilan bobosi bo'lmish Amir Temur nazariga tushgan. Sohibqiron hayotlik chog'larida o'z o'g'illari va nabiralari qatorida Xalil Sultoni ayri-cha ko'z bilan ko'rmasdan ayrim paytlarda Xalil Sulton Mirzoni maslaxatlarini quloq solidi va XIV asir oxiri va XV asir boshlarida bo'lib o'tgan ko'pgina janglarda nabirasini qo'shining asosiy qismlarga sarkarda qilib tayinlaydi. Bular orasida Amir Temurning Hindistonga yurushi (1399-yil) keyinchalik yetti yillik urushda, Usmoniylar imperatori Boyazid Yildirimga qarshi Anqara jangida (1402) Anqara jangida Sulton Husayin, Xalil Sulton, Shoxrux Mirzo qo'shining chap qanotini boshqaradi, Xitoyga qarshi yurushlarda katta ro'l o'ynaydi.

Jumladan Hindiston yurushi (fillar janggi) Temur qo'shinlari katta qiyinchilikga uchraydi bunga sabab dehlilar sulolasi vakilari jang taktikasida jangovar fillardan foydalanganligi Sohibqiron qo'shinlari orasida sarosimalik keltirib chiqarasi. Shunday bir vaziyatda Xalil Sultonning fillarni olov bilan qo'rqitib orqaga hindlar ustiga haydash fikri bobosiga maqul bo'ladi va jangda g'alabaga erishadi. Hind safaridan qaytgan Sohibqiron nabirasini o'ng tomonidagi oq arg'umoqqa mindirib g'olib sarkardalar qatorida poytaxt bo'lmish Samarqandga olib kiradi. Aynan shu voqedan keyin Amir Temurning nazariga tushadi va valiahdlar qatorida birinchilardan bo'lib zikri keltiriladi.

Bundan tashqari Xalil sulton 1399-1404-yillarda Amir Temurning G'arib hukumdorlari bilan diplomatik aloqalari. Xalil Sulton Mirzo vositachiligida amalga oshiriladi. G'arib davlatlari hukumdorlari bilan olib borilgan xat hujjat aloqalari uning naqadar siyosat sohasida ham foaligini bildirib turgan.

1399-1404-yillarda zamon shohining Iroq, Arab, SHom safarlarida g'alabalardan so'ng Mirzoning foaligi tufayli o'zi Samarqandga qaytadi aynan bu mamlakatlardagi boshqaruv mirzo Xalil Sulton qo'l ostida qoladi. Bu vaqtda Xalil Sultonning otasi Eron va Ozorboyjon hokimi Mironshoh ichkilik berilganligi tufayli norozilik kuchayadi. Notinchlikdan qo'rqan Suyun beka Samarqandga kelib Temurga vaziyatni bildiradi. Bu vaziyatni bartaraf etish maqsadida Amir Temur Xalil Sultoni olib dastlab Tabrizga keyin esa o'zi qurdirga Qorabog'ga boradi.

Amir Temur rayitagiga kora 1399-yil Jahon Sulton begimga uylantirib qo'yiladi. Ammo bobosiga fikriga qarshi borib saroy kanizaklaridan biri bo'lgan SHodi mulk og'aga uylanishi Amir Temurning jahlini chiqaradi va o'zidan uzoqlashtiradi. Xalil Sulton Sayfiddining cho'risiga oshiq bo'lib SHodi mulkga uylanganligi uchun tutib keltirib Maxdi Ulyo Bayon og'a turgan qasirga qamab qo'yiladi. Shodi mulk xonim hunarmand oilasidan chiqan. Xalil Sultonning bu xatosi Temurning valiahdlik taxtidan olib tashlashiga turtki bo'ldi. Amir Temur 1404-yilda Buyuk Xitoy yurushi boshlanadi va 1402-yilda Turkuston chegaralaridagi qo'shining oliy qo'mondonligi topshirilgan Xalil Sulton Xitoyga qilgan yurushning harbiy qismning o'ng qanotiga bosh qo'mondon qilib tayinlanadi Toshkent va uning atrofida to'planadigan katta qismli

jangchilarga Xalil Sulton qo'mondon etib belgilanadi. 1405- yilda Amir Temur Xitoy safariga ketish chog'ida O'trorda halok bo'lgandan so'ng. O'limi haqidagi habar Toshkentda turgan Xalil Sultonga birinchilardan bo'lib yetib keladi. Bu voqeadan so'ng katta qo'shinga ega bo'lgan Xalil Sulton 1405-yil 18-mart dushanbasida Samarqanda ostonalariga kirib keladi. Samarqandga kirib kelgan Mirzoga Shahar boshlig'i Arg'unshoh va O'trordan qaytgan Amir Xo'ja Yusufklar Samarqand hokimligi va kalitini topshiradi. Samarqandning Xalil Sulton qo'lga o'tishi Sohibqiron hazinasi, kattagina qo'shin va o'z navbatida saroyning kiborli a'yonlarini Xalil Sultonga bosh egishini va uning xizmatiga o'tdi. Ammo haqiqiy taxt vorisi bo'lgan shahzoda Pirmuhamadni Amir Temurning sadoqatli amirlari va beklari qo'llab quvvatlaydi. Xalil sulton Mirzo bunday muanmoli vaziyatni bartaraf qilish maqsadida xonlik taxtiga o'zi emas valiyahtlikka nomzod bo'lgan Muhammad jahongirni taxtga ko'taradi rasman hokimiyat qo'lostida to'planmagan bo'lsada davlatni o'zi idora etadi va shu paytgacha Mo'gil xonlari davlat boshqaruviga chek qo'yiladi. Bu voqeya tarix sahnasiga Temuriylar davlati va nomini alohida Chig'atoy xonlaridan ayirgan holda amalga oshirila boshlanadi. 1405-yil Xalil Sulton bobosining xohish istagini hisobga olgan holda valiahd bo'lmish Amir Temur katta o'g'li Jahongir Mirzoning o'g'li Muhammad Sulton Mirzoning 9 yoshli o'g'li Muhammad Jahongir Mirzoni xon qilib ko'taradi.o'zi esa bevosita mamlakatni otaliq lavozimini egalaydi va davlat ishlarini ammalda u boshqaradi. Xalil sultoning bunday ishni amalga oshifridan siyosiy maqsadi ham mavjud edi. Muhhamad Jahongirni xon qilibn ko'tarishdan maqsad.

1. Amir Temur birinchi taxt vorisi Muhhamad Sulton Mirzoni ko'targan edi.Temur vasiyati bajarish uchun taxtga Jahongirni o'tqazadi.

2. Muhhamad Jahongirning xon qilib ko'tarilishi Amudaryoning nargi tomonidagi Shoxruh va Pirmuhammad hokimiyatini zaiflashtirib qo'yar edi.

Xalil Sultoning bu jasoratiga o'z zamonasiga ko'ra katta bir yangilik edi. Zero "xon" lik mansabini chingiziylar sulolasidan temuriylar sulolasiga o'tkazilishi birinchi xodisa qilinmagan ish edi. Xatto Temurning o'zi xam bunday qilishga juraati qilmagan.Xalil Sultoning taxtni egalashi boshqa shahzodalarning ham Temur davlatini mustaqil boshqarish uchun janglarni amalga oshrishga sabab bo'ladi.Xalil Sulton Movrunahir taxtida o'tirgan chog'larida zamon shohi sifatida nomidan kumush va mis tangalar zarb qildirgan. Bu tangalarning o'ziga xosligi shundaki tangalarda o'z nomi bilan birgalikda Muhamad Jahongirning nomini xon so'zini qo'shmay zarb qildirganidadir. Xalil Sulton hokimiyat kelganidan ikki kun o'tib Muhammad Sulton Mirzo xonaqohiga borib motamni yanada tantanali va ulug'vor o'tkazadi.

Xalil Sulton taxtga kelganida 22 yoshda edi shunday yosh bo'lsada mohir diplomatiyasi va harbiy salohiyati orqali muanmoli vaziyatlardan oqiloni chiqib keta olgan. Amir Temur vafotidan keyin kuyovlaridan biri Sulton Husayin Mirzo Xalil Sultoning xizmatiga o'tadi. Xalil Sulton unga 30 minglik qo'shin beradi.1405-yilning

may oyida Sulton Husayin Mirzo Balxni egallashi tufayli Xalil Sultonga qarshi bolib qoladi.

1405-yil shu davirda yashagan Pir Ali toz Xalil Sulton xizmatiga o'tadi. Ammo kiyingi faoliyatlari tufayli ko'rishimiz mumkinki Sulton Husayin Mirzoni Xalil Sultonga oyoqlantirib unga qarshi bo'lgan ishlarni ham amalga oshiradi. Xalil Sultonning zavjasi bo'lgan Shodi Mulk og'a saroydagi vaziyatni o'z qo'liga olish maqsadida Amir Temur xotini bo'lmish Saroy Mulk xonim va Tugal xotinni 1408-yilda zaxarlab o'ltiradi Xalil sulton atrofidagi bunday voqealarni tez tez bo'lib turishi saroy ichidagi turli xil ziddiyatlarni va o'z navbatida Mirzoga qarshi kayfiyatni uyg'otishiga sabab bo'ladi.

Xon 1405-yil dekabirdan 1406 -yil yanvargacha Xorazimni bosib olgan va Buxora chegarasigacha kelgan Oltin O'rda Tatarlariga qarshi kurash olib boradi. 1409-yilgi SHohruh Mirzo bilan bo'lgan jangda Xalil Sulton mag'lubiyatga uchraydi, bu jangda Shoxruhning harbiy salohiyat emas jang hiylasi uning g'alabasini taminlab beradi. 1409-yil bahorida Shohrux Mirzo qo'shini Badxez mavzeyida Xalil Sulton qo'shini SHahrisabizda joylashgan edi. Ayni shu vaqtga kelib shimolda Xudoydot qo'zg'olon ko'taradi qo'shining asosiy qismini Shahrisabizga tashlab 4000 ming askar bilan qo'zg'oloni bostirishga ketadi. Shodi

Mulk og'a bu vaziyatda qo'lga olinadi va SHohruh Mirzoga topshiriladi. 1409-yil 30 martda Xalil Sulton Mirzo amir Xudoydot tomonidan asirga olinib Samarqandga olib kelinadi keyinchalik Farg'onaga olib boriladi u yerdan O'troga olib ketiladi.

Xalil Sulton davrida faqat davlatni harbiy qudrat bilan boshqarmagan jumladan mamlakatning manaviy qiyofasiga ham etibor bergan o'z navbatida o'zi ham ziyoli shaxs bo'lgan. Bunga misol qilib, ushbu davirda ijod etgan shoir Xo'ja Ismatullo Buxoriy sher yozishni undan o'rganganligini aytib o'tadi

Ibn Arabshohning malumot berishicha Xalil Sulton Shodi mulk rayisiz hech qanday farmon imzolay qolgan. Aynan bu hodisa saroy ichida malikalarni ham boshqaruv sohasidagi roli katta ekanligini ko'rsatib beradi.

Shoxrux va Xalil Sulton bitimiga ko'ra 10 minglik mashhur otlik qo'shini Xalil Sultonga qo'shib jo'natiladi. Shodi mulkga yaqin bo'lgan uning xizmatkorlaridan bir Bobo Tarmishni bosh vazir lavozimi qilib ko'taradi, esa asl zodalarning noraziligiga olib keladi. 1407-yil Movrunahirda ocharchilik yuz berdi askarlar va aholi o'rtasida noroziligiga olib keldi. 1409-yil 13-may Shohrux Samarqandga kirib keldi.

Xalil Sulton adolatni bosh mezon qilib ichki va tashqi axvoli yaxshilashga harakat qildi. Shodi mulk begim tavsiyasiga ko'ra xalil Sulton roziligi bilan Temur xotini Tuman og'ani 1406-yil Shayx Nurudinga nikohlab beradi. 1411-yil 4 noyabirda chorshanba kuni Xalil Sulton vafot etdi. Xalil Sultonning onasi Xonzoda begim 1411-yil 3-noyabirda Tusda vafot etadi. Xalil Sultonga qarshi kurashish uchun Pirmuhammad Mirzo SHoxur Mirzo bilan bitim imzolaydi. Shohrux Mirzoning Xalil

Sultonga qilgan yurushi otasi Mironshox va ukasi Abu Bakir yordami bilan mag'lubiyatga uchratildi. Bitimga muvofiq Xalil Sulton Movruanahirga bo'lgan davosidan voch kechib Ray viloyati hokimi deb tayinlanadi, Shu vaqlarda Eron huddida tarqalgan o'lat kasalligi tufayli 1411-yil 4-noyabirda Xalil Sulton Mirzo ushbu davosi mavjud bo'lmagan xastalikdan vafot etadi.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Turg'un Fayziyev "Temuriy shajaralar" Toshkent "Yozuvchi" nashriyoti – "Xazina" 1995-yil.
2. Hamid Ziyoyovning "Buyuk Amur Temur Saltanati va uning taqdiri" Toshkent "Manaviyat" nashriyoti 2008-yil.
3. Rustambek Shamsiddinov va Shodi Karimov "Vatan tarixi" Toshkent "sharq" Nashriyoti 2010-yil.
4. Turg'un Fayziyev Toshkent "O'zbekiston" nashriyoti 2013-yil.
5. A. Sagdullayev, B. Aminov, O'. Mavlonov, N. Norqulov "O'zbekiston tarixi; Davlat va jamiyat taraqqiyoti" Toshkent "Akademiya" nashriyoti 2000-yil
6. [https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalil\\_Sulton](https://uz.wikipedia.org/wiki/Xalil_Sulton)
7. <https://kh-davron.uz/kutubxona/alisher-navoiy/gulom-karim-xalil-sulton-tahsini.html>
8. Farhod Sultonov, Farruh Bozorboyev "O'rta asrlar tarixi" (O'zbekiston tarixi) Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti 2007-yil.